



O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

Vaziyat

2024-yil
26-dekabr
№ 52 (993)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

SHODIYONALAR TINCH VA OSOYISHTA O'TSIN



Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor A.Qo'ldoshev tomonidan Yangi yil bayrami o'tkaziladigan joylarda o'rganish ishlari amalga oshirildi. Poytaxtimizdagi A.Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi ro'parasida joylashgan asosiy bayram tadbiri archasining texnik mustahkamligiga, yong'in xavfsizligi qoidalariga asosan o'rnatilganligiga jiddiy ahamiyat qaratildi.

Qayd etiladi, xalqimiz orziqib kutadigan, katta shodiyonalar bilan nishonlaydigan bayramlar orasida Yangi yilning o'rni beqiyos. Bu bayram katta-yu kichikka birday quvonch bag'ishlaydi. Shunday ekan, tadbirlarni betalafot o'tkazish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash zimmamizdagi eng zarur hamda sharaflı vazifamiz hisoblanadi. Fuqarolarning tinch va osoyishta hayotini, xavfsizligini ta'minlash, ularni o't balosi hamda boshqa ko'ngilsiz hodisalardan asrashdir.

Ta'kidlandiki, elektr tokida ishlovchi o'yinchoqlardan foydalanganda albatta, sinchiklab tekshirish kerak. Birinchi navbatda, ularning izolyasiyasiga e'tibor qaratish zarur. Shuningdek, bunday turdagi o'yinchoqlar tegishli sertifikatga egaligiga ishonch hosil qilish lozim. Shuningdek, kunu tun navbatchilik olib borayotgan yong'in-qutqaruv ekipajlarining jangovar shayligi va maxsus texnikalar holati ko'zdan kechirildi. O'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan mutasaddilarga zarur ko'rsatmalar berildi.

KO'KRAK NISHONI MUBORAK BO'LSIN!



"Yoshlar forumi – 2024" doirasida "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishonini topshirish marosimi o'tkazildi.

Ushbu mukofot vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'usi va mehnatsevarlik fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan, Vatanimiz obro'si, shon-shuhrati va sharaflini yuksaltirishga, shuningdek, uning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilayotgan, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etib, o'rnak bo'lib kelayotgan yoshlarni taqdirlash maqsadida beriladi.

Ushbu ko'krak nishoni O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Markaziy Kengashining qarori asosida, O'zbekiston Yoshlar Ittifoqining quyi tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan nomzodlar tanlov Komissiyasi tomonidan o'rganib chiqilganidan so'ng tantanali ravishda topshiriladi.

Bu yil "Yoshlar Forumi – 2024" doirasida ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, san'at, jurnalistika, sport, qishloq xo'jaligi, kichik biznes, huquq va harbiy sohalarda o'qiyotgan, ishlayotgan hamda ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanib, yuksak natijalarga erishayotgan bir guruh yoshlar hamda soha vakillariga "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni tantanali topshirildi.

Qayd etilganidek, yoshlarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashi uchun barcha shart-sharoitni yaratish, ijodkor, izlanuvchan va tashabbuskor yigit-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Mazkur tantanali marosimda "Mudofaa va huquqni muhofaza qilish organlari" yo'nalishi bo'yicha Favqulodda vaziyatlar vazirining o'rinbosari polkovnik X.Alibayev ushbu ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

FVV VAKILLARI G'OLIBLAR SAFIDA

Toshkent shahrining Yunusobod tumanida joylashgan "O'zbekiston" sport majmuasida O'zbekiston huquqni muhofaza qilish organlarining Qo'l jangi federatsiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi mezbonligida sportning qo'l jangi turi bo'yicha "Qurolli Kuchlar birinchiligi" musobaqasi bo'lib o'tdi.

Chempionatning tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi V.Mahmudov, Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tarkibiga kiruvchi vazirlik hamda idoralar rahbarlari qatorida Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor A.Qo'ldoshev, mutasaddilar, fahriylar, shuningdek, xizmat vaqtida qahramonlarcha halok bo'lgan harbiy xizmatchi va xodimlarning yaqinlari ishtirok etdi.

Ta'kidlandiki, mamlakatimizda sportni rivojlantirish borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Buning samarasi o'laroq yurtimiz bayrog'ini xalqaro arenalarda yuqori ko'tarayotgan yoshlar soni kun sayin ortib bormoqda.

Musobaqa yakuniy natijalariga ko'ra, shaxsiy hisobda qizlar terma jamoasi bo'yicha 1-o'rinni 48 kg. vazn toifasida Navoiy viloyati FVB xizmatchisi M.Fayzullayeva, 2-o'rinni 70 kg. og'ir vazn toifasida Jizzax viloyati FVB dispetcheri oddiy askar M.Meliyeva, 53 kg. vazn toifasida esa Sirdaryo viloyati FVB xizmatchisi S.Radjabova, 57 kg. vazn toifasida Namangan viloyati FVB kichik inspektori oddiy askar D.Rustamova, 70 kg. vazn toifasida "Navoiy



kon-metallurgiya kombinati" AJ obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi kichik inspektori oddiy askar Sh.Bozorova 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Erkaklar terma jamoasi bo'yicha esa 62 kg. vazn toifasida Sirdaryo viloyati FVB xizmatchisi B.G'ulomov, 80 kg. vazn toifasida Namangan viloyati FVB xizmatchisi A.Jo'rayev 3-o'rinni egalladilar.

G'olib va sovrindorlarga medal, diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.

VAZIFALAR BELGILANDI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B.Kudratxodjeyev raisligida navbatdagi hay'at yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tgan muloqotda mahkama va barcha hududiy harbiy prokuraturalar xodimlari ishtirok etdi.

Jarayonda harbiy prokuratura organlari tomonidan joriy yilning o'tgan davrida yangi tahrirdagi Konstitutsiya, boshqa qonun va qonunosti hujjatlari

asosida amalga oshirilgan ishlar natijalari ko'rib chiqildi.

So'ngra Qurolli Kuchlarda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, energetika xavfsizligi borasidagi va faoliyatga doir boshqa masalalar sarhisob qilindi.

Faxriddin BEGASHEV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bo'lim boshlig'i,
adliya polkovnigi.

FESTIVAL

Jizzax viloyati G'allaorol tumanidagi olis maktablarning birida Jizzax harbiy prokuraturasi garnizon qo'mondonligi bilan hamkorlikda yoshlar ishtirokida "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri" shiori ostida harbiy vatanparvarlik festivali o'tkazildi.

Festival davomida harbiy qism qurol-yaroq ko'rgazmasi, qo'l jangi namoyishi, fahriy qorovul saf chiqishlari va harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar ishtirokchilarda iliq taassurot uyg'otdi.

Sh.HAYITOV,
Jizzax harbiy prokurori,
adliya polkovnigi.

MA'RIFAT SOATI

Namangan viloyati FVB "Korrupsiyasiz faoliyat – rivojlanish garovi" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulot o'tkazildi.

Dastlab, boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari — Shtab boshlig'i polkovnik Akmaljon O'rinboyev tomonidan mashg'ulot ishtirokchilariga kun tartibi tanishtirilib, Favqulodda vaziyatlar vazirining tegishli buyrug'i bilan yan-

gi lavozimga tayinlangan xodimlar o'qib eshittirildi.

Shundan so'ng, Namangan davlat universiteti dotsenti sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), Muhridin Sodirjonovning "Korrupsiyasiz faoliyat – rivojlanish garovi" mavzusidagi ma'ruzasi tinglandi.

O'tkirbek KALONOV,
Namangan viloyati FVB SHXB
xodimi, podpolkovnik.

"OCHIQ ESHIKLAR" KUNI

Poytaxtimizning 22-30-Mehribonlik uylari hamda Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasi tarbiyalanuvchilari ishtirokida FVV Akademiyasiga "Ochiq eshiklar" kuni tashkil etildi.

Unda bir guruh yoshlarga akademiya hamda Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyiga o'qishga qabul qilish tartibi, ta'lim muassasalaridagi mavjud shart-sharoitlar, beriladigan imtiyozlar yuzasidan batafsil tushunchalar berildi.

Ekskursiya doirasida yoshlarga akademiyaning professor-o'qituvchi-

lari tomonidan amaliy-o'quv markazidagi zamonaviy yong'in-qutqaruv texnikalari va ularning taktik xususiyatlari, asbob-anjomlari, maxsus yong'in-qutqaruv vositalari, kursantlar oshxonasida yaratilgan shart-sharoitlar, o'quv sport majmualari, Axborot-resurs markazining faoliyati, o'quv-laboratoriya auditoriyalari, shuningdek, o'quv-amaliy mashg'ulotlari bilan tanishtirib o'tildi.

Farhodjon XOJAYEV,
FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi,
mayor.

KORRUPSIYASIZ KELAJAK QOLDIRAYLIK!

Yosh avlodga korrupsiyasiz kelajak qoldiraylik! Ayni shu mavzuda Xorazm viloyati FVBba "Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik" mashg'uloti tashkil qilindi. Unda viloyat IIB tezkor qidiruv xizmati korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'limi katta tezkor vakili mayor X.Radjapov qatnashib, mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar bo'yicha to'xtalib o'tdi. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi hamda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi

qonunlarining mazmun-mohiyatini atroflicha tushuntirib berdi.

Shuningdek, boshqarma boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik N.Abdullayev hamda boshqarma shaxsiy xavfsizlik bo'limi boshlig'i podpolkovnik K.Rahmonqulovlar so'zga chiqib, soha yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar yuzasidan ma'lumotlar berdi.

Dadaxon QURBONDURDIYEV,
Xorazm viloyati FVB bo'lim boshlig'i,
mayor.

SARHISOB

Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B.Kudratxodjeyev raisligida muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi o'tkazildi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tgan muloqotda harbiy prokuratura organlari xodimlari, Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idoralarning vakillari hamda mas'ul ofiserlari ishtirok etdi.

Kun tartibida Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idoralarda joriy yilning o'tgan davrida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, huquq-tartibot ahvoli, huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyati ko'rib chiqildi.

Joriy yil 12-yanvarda Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni tomonidan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilab berilgan topshiriqlar va vazifalar ijrosi doirasida amalga oshirilgan

chora-tadbirlar natijalariga alohida urg'u berildi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini amalda to'liq ta'minlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar va bu borada hamkorlikdagi tadbirlar bo'yicha aniq tavsiyalar bildirildi.

Energetika xavfsizligi, qish mavsumini betalafot o'tkazish, "Yashil makon" umummilliy harakati masalalari ham yig'ilganlarning diqqat markazida bo'ldi.

Shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olishda, huquqiy targ'ibot-profilaktika va harbiy vatanparvarlik faoliyatida munosib ishtirok etgan harbiy qism va muassasalar rahbarlariga tashakkurnomalar topshirildi.

Shuhrat SANAYEV,
O'zbekiston Respublika Harbiy prokuraturasi bo'lim boshlig'i.

HAMKORLIKDA

Yurtimiz aholisini vodiy bilan bog'lab turuvchi muhim strategik ahamiyatga ega A-373 Toshkent-O'sh avtomobil yo'lining "Qamchiq" dovoni qismida FVDT xizmatlari tarkibiga kiruvchi idora va tashkilotlar bilan kompleks o'quv mashqi o'tkazildi.

Unda bugungi kundagi zamonaviy axborot-texnologiya vositalaridan unumli foydalanib, barcha o'quv nuqta-

larini VKS qurilmalari yordamida Respublika idoralararo Shtabiga onlayn shaklida uzatib borildi. Bunda "O'zbektelekom"AK Toshkent va Namangan filiallari, Mudofaa vazirligining Maxsus avariya-tiklash boshqarmasini kuch va vositalaridan to'liq va samarali foydalandi.

S.MIRZALIYEV,
"Qamchiq" MQYOQB bo'lim boshlig'i, II darajali serjant.

TUNGI TADBIRLAR

Namangan viloyati FVB boshlig'i polkovnik Bunyod Egamnazarov tomonidan Davlatobod tumanida qish mavsumini betalafot o'tkazish yuzasidan tungi profilaktik tadbirlari o'tkazildi.

Unda aholini uzluksiz energiya resurslari bilan ta'minlash, kommunal soha obyektlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, boshqaruv servis kompaniyalarining ishlash sifatini yanada yaxshilash hamda elektr, gaz ta'minoti korxonalarining avariya-qutqaruv avtomashina-

lari, ulardagi asbob-anjomlar hamda shaxsiy tarkib shayligini oshirishga ham alohida e'tibor qaratildi.

Tadbirlar davomida tungi vaqtda xizmat olib borayotgan ishchi-xodimlarga favqulodda vaziyatlar, yong'in va boshqa turdagi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ofatlarning oldini olish, sodir bo'lganda harakatlanish tartiblari yuzasidan tushuntirish ishlari olib borilib, ularga zaruriy tavsiyalar berildi.

Qahramon SATTOROV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

YOSHLAR ISHTIROKIDA

Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani FV bo'limi boshlig'i tashabbusi bilan tumanning "Besh bola pahlavon", "Navro'z", "Yangi qurilish", "Qiziltepa", "Madaniyat" va "Obod turmush" mahallalaridagi yoshlari ishtirokida Denov tumani Janubi-G'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Hayrobod garnizonidagi harbiy qismda "Ochiq eshiklar" kuni tashkil etildi.

O'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkazilgan ushbu tadbirda rahbarlar o'zining hayotiy tajribasi bilan o'rtoqlashib, milliy armiyamizning kuch-qudrati, unda

yaratilayotgan keng imkoniyatlar, Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilish va oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olish to'g'risida ma'lumotlar berib o'tdilar.

Uchrashuvdan so'ng, yoshlar o'rtasida "Yosh qutqaruvchi" musobaqalari o'tkazilib, unga ko'ra yoshlarning texnologiyaviy vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishi bo'yicha ko'nikmalari oshirildi.

Yakunda, harbiy orkestr ijrosidagi konsert dasturlari va faxriy qorovulning saf chiqishlari barchada katta taassurot qoldirdi. Uchrashuv so'ngida o'quvchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Jamshid SA'DULLAYEV,
Oltinsoy tumani FV bo'limi bo'linma inspektori, katta leytenant.

HUSHYORLIKKA CHORLOV

Shahrisabz tumani FV bo'limi xodimlari tashabbusi bilan "Miraki" mahallasi hududida yangidan barpo etilayotgan ko'p qavatli bino-inshootlarda quruvchi va mutaxassislar o'rtasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan profilaktik-targ'ibot tadbiri har tomonlama samarali bo'ldi.

Unda soha mutaxassislari yong'in xavfsizligi qoidalariga

amal qilish, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish va birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartiblari bo'yicha tavsiyalar berildi.

Huddi shu kabi tadbirlar Yakkabog' tumanida ham o'tkazilib, mutaxassislar tomonidan qurilish ishlari davrida ishlab chiqilgan loyiha hujjatlariga shaharsozlik sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan yong'inga qarshi tadbirlarni to'liq bajarilishini va dav-

lat ekspertizasidan o'tkazilishi, maskanlarni foydalanishga qabul qilish jarayonlari profilaktik ko'riklar davomida o'rganildi.

Najmiddin BEKBUTAYEV,
Shahrisabz tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

Rustam ESHNAZAROV,
Yakkabog' tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

TASHVIQOT

Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB tomonidan respublika hududidagi umumta'lim maktablari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi xodimlar, o'qituvchi, o'quvchi-yoshlar, tarbiyachilar ishtirokida is gazidan zaharlanish va yong'in xavfining oldini olish bo'yicha profilaktik ishlar olib borilmoqda. O'sib kela-

yotgan yosh avlodning yong'in xavfidan ogoh bo'lishi, xavfsizlik qoidalariga amal qilishi va xavf yuzaga kelganda to'g'ri harakatlanishi bo'yicha tushunchalar berilmoqda.

Aybek ABDIRAHMANOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB matbuot xizmati boshlig'i, mayor.

OGOHLIK

Toshkent viloyati FVB "Ko'ksaroy" qarorgohi OYXTTEB shaxsiy tarkibi tomonidan Qibray tumani "Do'rmon" MFY hududida yashovchi aholi honodlarida qish mavsumida yong'inlarning oldini olish borasida targ'ibot ishlari olib borildi.

Tadbir davomida aholiga is gazidan zaharlanish va uning kelib chiqishi, gaz qurilmalaridan foydalanish tartib-qoidalarini, gaz hidini sezganda to'g'ri harakat qilish tartibi, mo'rikonlarni tozalash ishla-

rini doimiy tashkil etish zarurligi aytiladi. Bolalarni uyda yolg'iz qoldirmaslik va gugurt o'ynamasligiga e'tiborli bo'lish, elektr tarmog'iga ulangan asbob-uskunalarini nazoratga olish va ortiqcha yuklama-

larni oshib ketmasligiga e'tibor berish va isitish tizimlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'inlar va ularning oqibatlarini to'g'risida tushuntirish ishlari olib borildi. Shuningdek, fuqarolar tomonidan berilgan savollarga javob berildi.

I.JAZDANQULOV
Qibray tumani OYXTTEB inspektori, katta leytenant.

PROFILAKTIKA

Qorao'zak tumani FV bo'limi boshlig'i tomonidan otaliqqa olingan, Nukus davlat pedagogika instituti va Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat universitetida ta'lim olayotgan talabalar bilan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda qutqaruvchilik kasbiga yo'naltirish bo'yicha uchrashuv tashkil-

Uchrashuv davomida yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish va fuqarolarning is gazidan zaharlanishining oldini olish bo'yicha profilaktik ishlar amalga oshirildi.

A.DJALELOV,
Qorao'zak tumani FV bo'limi katta inspektori, katta leytenant.

XAVFLI KASALLIK

Toshkent viloyati FVB va tegishli mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda viloyatning shahar va tumanlarida "Oziq-ovqat mahsulotlaridan ommaviy zaharlanishlar bilan bog'liq kasalliklarning oldini olishda FVDT tegishli xizmatlarining hamkorlikdagi harakati" mavzusida o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

Shuningdek, viloyat hududidagi korxonalar, tashkilot va muassasalarda malakali mutaxassislar ishtirokida "Yong'in xavfsizligining oldini olish" va "Botulizm — xavfli kasallik" mavzularida seminar va davra suhbatlari tashkil qilinib, mavzuga doir eslatmalar tarqatildi.

lari va umumiy ovqatlanish muassasalarida uy sharoitida tayyorlangan konserva mahsulotlari, shuningdek, qo'lbola isitish vositalari sotilishining oldini olish bo'yicha reydtadbirlari o'tkazildi.

Mas'ul xizmatlar aniqlangan kamchiliklar yuzasidan o'rnatilgan tartibda choralar ko'rdi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati hamda tegishli xizmatlar bilan hamkorlikda dehqon bozorlarida, oziq-ovqat do'kon-

O.RAHMONOV,
Toshkent viloyati FVB bo'lim bosh inspektori, leytenant.

DOVONDA...

A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining "Qamchiq" dovoni qismida qish mavsumida aholini xavf-xatarsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida, 15 ta mexanizatsiyalashgan nazorat-kuzatuv guruhlarida qutqaruvchi, yo'l-patrul xizmati, yo'lchilar tomonidan kechayu kunduz navbatchilik tashkil etilgan. FVV 6-navbatchilik maskani,

IIV JXD YXXX 6 ta yo'l patrul mashinasi, "Qamchiqavtoyol" IYFUKga qarashli 10 ta yo'l bo'limlarida yuzdan ortiq mashina — mexanizmlar, SSV 6 ta tez tibbiy yordam shoxobchalarida malakali tibbiyot xodimlari navbatchiligi tashkil etilgan.

Xavfli uchashtalarda doimiy monitoring-kuzatish ishlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, avtomo-

bil yo'lini saqlash, xandaqlarni tozalash va sirpanchikka qarshi qum-tuz aralashmalarini sepish ishlarini bajarish hamda qor ko'chkilariga xavfli uchashtalarda ogohlantiruvchi va transport vositalarini to'xtatishni ta'qiqlovchi belgilar o'rnatilgan.

Sh.ABDUSATTOROVA,
"Qamchiq" MQYOQB bosh mutaxassisi.

O'QUV SEMINAR

"Navoiy kon metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" davlat korxonasi obyektlarida Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazida "Aholi va hududlarni radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofazasini tashkil etish" mavzusida o'quv seminar tashkil etildi.

Unda viloyat FVB mas'ul xodimlari, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" Aksiyadorlik jamiyati va "Navoiyuran" davlat korxonasi obyektlarining shu sohaga bevosita javob beradigan xodimlari hamda markaz bo'lim, guruhi boshliqlar ishtirok etdilar.

Tadbirda viloyat FVB bo'lim boshlig'i podpolkovnik Davurxon Do'smonov so'zga chiqib,

hozirgi kunda ishlab chiqarish korxonalarida kuchli ta'sir etuvchi moddalarning ishlab chiqarilayotganligi, bu esa o'z navbatida, atrof-muhitga va insonlar salomatligiga bo'lgan tasiri ortishi va mutaxassislar tomonidan ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar nihoyatda muhim ekanligini takidlab o'tdi. Bu borada

barcha shu yo'nalishga javobgar bo'lgan mutasaddi xodimlarga, zamonaviy ko'rinishdagi maxsus vositalarning bugungi kundagi yangi avlodi, ya'ni radiometrik-dozimometrik va gozoanalizator uskunalarining qulayliklari va ularning taktik-texnik xususiyatlari hamda ishlatilishi haqida bir qator tushuntirish ishlari olib borildi.

G'iyosjon QODIROV,
"Navoiy kon metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" Davlat korxonasi obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi inspektori, mayor.

Ma'rufjon HAYITOV,
markaz xodimi, katta serjant.

YO'RIQNOMALAR BERILDI

Davlatobod tumani FV bo'limi Davlat yong'in nazorati inspektorlari tomonidan "Yuksalish" mahallasidagi ko'p xonadonli uylarda yong'inlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar o'tkazildi. Unda tuman FV bo'limi Davlat yong'in

nazorati inspektorlari tomonidan fuqarolarga sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish, sodir bo'lganda dastlabki harakatlar, is gazidan zaharlanish holatlari, gaz va havo aralashmasining

chaqnashi kabi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha tushuncha va yo'riqnomalar berildi.

Sardorbek RAHIMOV,
Davlatobod tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

TARG'IBOT

Toshkent viloyati FVB xodimlari tomonidan joylarda gaz va elektr xizmati idoralari, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa dahl-dor tashkilotlar bilan hamkorlikda aholi yashash uylarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlarni, insonlar halok bo'lishi yoki tan-ja-

rohati olishlarining oldini olish maqsadida viloyat hududidagi "Nurafshon arena" sport maydonida viloyat sport maktabi rahbarlari bilan targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

O.HAKIMOV,
Toshkent viloyati FVB bo'lim bosh inspektori, katta leytenant.

JAMOAT TRANSPORTLARIDA

Davlatobod tumani FV bo'limi tomonidan ijtimoiy soha obyektlari, tadbirkorlik subyektlari va aholi yashash xonadonlarida keng qamrovli profilaktika ishlari olib borilmoqda.

Bo'lim inspektorlari tomonidan jamoat transport vositalarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash maqsadida tumandagi "Ex-

press dolina" mchj xodimlari va xaydovchilariga tushuntirish ishlari olib borildi. Tadbir davomida MCHJ hududida va zamonaviy avtotransportlarda mavjud avtomatik yong'in o'chirgichlar, birlamchi yong'in o'chirish vositalarining sozligi o'rganildi.

Iilhom AHMADALIYEV,
Davlatobod tumani FV bo'limi PNB katta inspektori, katta leytenant.

QURUVCHILARGA ESLATMA



Olmazor tumani FV bo'limi tomonidan "Chamanbog" MFYdagi "SI-YMO-DIZAYN" MChJ qurilish tashkiloti tomonidan yangi quriladigan binoda ishlayotgan quruvchi hamda ishchi-xizmatchilarga qurilish joylarida yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga rioy

qilish, favqulodda vaziyat yuz berganda bartaraf qilish usullari, is gazidan zaharlanishning oldini olish, gaz-havo aralashmasi chaqnashi va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarni kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, yong'in xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini kuchaytirishga qaratilgan hamkorlikdagi profilaktik ishlarni amalga oshirish kerakligi qurilish ma'sullariga tushuntirildi.

Jamshid PO'LATOV,

Olmazor tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

ZARUR VAZIFALAR

Aholi o'rtasida is gazidan zaharlanish hamda havo-gaz aralashmasi chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish, shuningdek, aholining bu boradagi savodxonligini oshirish maqsadida FVV xodimlari tomonidan Toshkent shahar Yunusobod tumanida ham profilaktik tadbirlar amalga oshirildi.

Mazkur tadbirlar davomida yong'in xavfsizligiga qat'iy rioya etish, xona-

donlarda qo'lbola nostandart isitish vositalaridan foydalanmaslik yuzasidan tegishli ma'lumotlar berildi.

Zoyir MUSTAFOYEV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi ma'muriy binolarida YXTTEB 4-bo'linmasi inspektori, kapitan.

QUDUQLAR NAZORATI

Olmazor tumani FV bo'limi harbiy xizmatchilari va tuman Suvsoz xodimlari bilan hamkorlikda favqulodda vaziyat va yong'in sodir bo'lganda suv quduqlarini soz bo'lishini ta'minlash maqsadida tumandagi mavjud suv quduqlari o'rganilib, asfalt ostida qolganlarini ustki qismi ochilib, suv quduqlaridagi nosozliklarni bartaraf qilish ishlari amalga oshirildi. Yangi aniqlangan suv quduqlarini belgilari

ko'rinadigan shartli belgilari chizildi hamda fuqarolarga ko'cha yuzidagi suv quduqlariga boruvchi yo'llarni har xil turdagi qurilmalar bilan to'sib qo'ymaslik bo'yicha mahalla fuqarolari bilan tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

Ismoil YULCHIYEV,

Olmazor tumani FV bo'limi 2-YoQQ smena boshlig'i, kapitan.

SAMARALI ISHLAR

Taxiatosh tumani FV bo'limi tomonidan tuman miqyosidagi barcha aholi yashash uylarining qish mavsumiga tayyorligi o'rganilmoqda. Mazkur o'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklar joyida bartaraf qilinib, aholining hayoti va xavfsizligi ta'minlanmoqda. Bu tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad mavsumni betalafot o'tkazish

va har qanday sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olishdir.

T.YUSUPBAYEV,

Taxiatosh tumani FV bo'lim katta inspektori, katta leytenant.

U.ATAJANOV,

bo'lim kichik inspektori, katta serjant.

PLAKATLAR TARQATILDI

Surxondaryo viloyati "Hududgaz-ta'minot" AJ Bandixon tumani bo'limi, tuman elektr ta'minoti bo'limi va uy-joy mulkdorlari shirkatlari hamda pech va dudburonlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan tashkilotlar mutaxassis (usta)laridan iborat tashkil etilgan ta'mirlash-tiklash otryadlari tomonidan turar joylarda o'tkazilgan tekshiruvlar davomida aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish choralarini ko'rilmoqda.

Shu kunga qadar yong'in xavfsizligi qoidalarini talablarini targ'ib qilish hamda bu borada fuqarolarning bilim ko'nikmalarini oshirish maqsadida qator uchrashuv va yig'ilishlar o'tkazildi. Aholiga isitish pechlari va gaz moslamalaridan foydalanish qoidalarini, gaz va havo aralashmasining chaqnashi,



fuqarolarni is gazidan zaharlanishi va boshqa noxush holatlarning oldini olishga qaratilgan tushuntirish ishlari kuchaytirish maqsadida eslatma, yo'riqnoma va plakatlar tarqatilmoqda.

B.MIRZAYEV,

Boysun tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, mayor.

O.HASANOV,

bo'lim etakchi mutaxassisi.

KORRUPSIYA — ILLAT

Oltinsoy tumani FV bo'limi shaxsiy tarkibi ishtirokida "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash siyosati" mavzusida uchrashuv tashkil etildi.

Unda so'zga chiqqanlar bugunning dolzarb mavzusi haqida o'z munosabatlarini bildirdilar.

Bugungi kunda illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga

oshirilayotgan bo'lsa-da, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti. Bo'lib o'tgan uchrashuvda shu kabi muammolarga echim topish yo'llari, shuningdek, bu yo'ldagi harakatlarni amalga ham bajarilishi lozimligi xususida fikrlar bildirildi.

Sharifjon SAIDOV,

Oltinsoy tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

UCHRASHUV

Ohangaron tumani "O'zbekiston temir yo'llari" AJ BYXTTE bo'linmasida yig'ilish o'tkazildi. Tadbirda ushbu bo'linma boshlig'i podpolkovnik U.Shermurotov so'zga chiqib, hozirgi kunda respublikamizda sodir bo'layotgan yong'inlar va ularning oqibatlarini, favqulodda vaziyatlar va yong'in xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida so'z yuritdi. Hamkorlikdagi ishlarni kuchaytirish, ishchi guruhlar tuzish, tashkil etilgan ishchi guruhi a'zolari ma-

hallalardagi xonadonlarga kirib, yong'in xavfsizligi bo'yicha mavjud muammolarni aniqlab, bartaraf etish choralarini ko'rishi zarurligini tushuntirdi.

Shuningdek, jamoat joylarida ko'rgazmali chiqishlar, bozorlarda mashg'ulotlar tashkil qilinib, aholiga targ'ibot materiallari tarqatish ishlari belgilandi.

Z.ESHNAZAROV,

bo'linma katta inspektori, katta leytenant.

O'QUV MASHQI

Samarqand shahridagi "Aziya Meytal" MChJ QKga qarashli bojxona omborida "Yonish va portlash xavfi yuqori bo'lgan kimyoviy moddalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va sodir bo'lganda oqibatlarini bartaraf etish" mavzusida amaliy o'quv mashqi o'tkazildi.

Obyektida yuz bergan favqulodda vaziyatni bartaraf etishga jalb etiladigan kuch va vositalarning saf ko'rigi o'tkazilib, obyektning rahbarlar va ishchi-xizmatchilar tarkibi hamda FVDT xizmatlari kuch va vositalari obyektning belgilangan joyida saflandilar. Shundan so'ng maxsus-taktik o'quv mashqi rahbari tomonidan ishtirokchilarga o'quv mashqi g'oyasi tanishtirilib, jalb qilingan kuch va vositalar harakatlanish tartibi bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarish uchun shay holatga keltirildi. Maxsus vazifalarni bajaruvchi mintaqaviy qutqaruv otryadining Radiatsion, kim-

yoviy va biologik (bakteriologik) muhofaza guruhi maxsus himoya kiyimlari yordamida kimyoviy modda saqlanayotgan sig'imdan zaxarlovchi modda sizib chiqishi bartaraf etildi. Jabrlangan ishchi qutqarildi va xavfsiz hududda birinchi tibbiy yordam ko'rsatilib, davolash muassasasiga yuborildi. Viloyat SEO va JS zararsizlantirish guruxi tomonidan degazatsiya ishlari o'tkazildi.

U.AXROROV,

Samarqand viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari, polkovnik.

AHOLI ORASIDA...

Toshkent viloyati FVB tashabbusi bilan Chirchiq shahrida ham "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati Chirchiq filiali, "Hududgaz ta'minoti filiali, shahar ichki ishlar, sog'liqni saqlash bo'limlari, Milliy gvardiya hamda boshqa daxldor tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida shaharning barcha mahalla, korxonalar va tashkilotlarda tadbirlar o'tkazilmoqda.

Aholiga xavfsizlik qoidalarini, gaz va elektr jihozlaridan to'g'ri foydalanish haqida keng qamrovli tushuntirish ishlari olib borish muhimligi aholiga yetkazilmoqda. Ta'lim muassasalarida

yoshlar o'rtasida yong'inning oldini olish va to'g'ri harakat qilish yo'nalishida musobaqalar hamda viktorinalar uyushtirilmoqda. Ommaviy axborot vositalarida chiqishlar, aholi orasida xonadonlarni qish mavsumiga tayyorlash, dudburonlarni tozalash, isitish tizimlarini nazoratga olish kabi ogohlik tadbirlarini vaqtida bajarish yuzasidan mahallalarda davra suhbatlari o'tkazilib kelinmoqda.

Husniddin AGLAYEV,

Toshkent viloyati FVB Chirchiq shahar HFXO'M katta o'qituvchisi.

VOLONTYORLAR ISHTIROKIDA

Shahrixon tumani yoshlaridan iborat qutqaruvchi-volontyor bo'lishga ko'ngilli ravishda istak bildirgan yoshlar bilan viloyat FVB o'quv markazi, tuman FV bo'limi hamda tuman Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda

"Yosh volontyor" o'quv kurslari tashkil etildi.

O.RAHMATOV,

Shahrixon tumani FV bo'limi boshlig'i v.v.b mayor.

TURAR JOYLARDA YONG'IN XAVFSIZLIGI

Hozirgi kunda Toshkent tumanida sodir bo'layotgan yong'inlarning 95 foizdan ortig'i fuqarolarning yashash xonadonlarida sodir bo'lmoqda. Shunisi achinarliki fuqarolarning yong'in xavfsizligi qoidalarini bilmasliklari yoki bila turib beparvolik bilan qoidalarni qo'pol ravishda buzishlari yong'inlarni kelib

chiqishiga sabab bo'lmoqda. Sodir bo'layotgan yong'inlar oqibatida xonadonlar hamda ularning moddiy boyliklari yaroqsiz holatga kelib qolmoqda. Yong'inlarning aksariyat qismi xonadonlarda fuqarolarimizning yong'in xavfsizligi qoidalarini buzilishi, elektr simlarining qisqa tutashuvi, tabiiy gazdan foydalanishda

yong'in xavfsizligi qoidalarini buzilishi hamda ulardan noto'g'ri foydalanishlari, e'tiborsizliklari oqibatlaridan kelib chiqmoqda.

Sh.BAXRIYEV,
Toshkent tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i leytenant.

KO'NIKMALAR OSHIRILDI

Uychi tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan profilaktik tadbirlar kuchaytirilgan tartibda amalga oshirilmoqda.

Aholi, korxonalar va tashkilot ishchi-xizmatchilariga sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ro'y berganda to'g'ri harakat qilish,

birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartibi, is gazi, gaz-havo aralashmasi chaqnashi holatlarining oldini olish bo'yicha tushuntirishlar berilib, bilim va ko'nikmalari mustahkamlanmoqda.

Sardor BAXRONOV,
Uychi tumani FV bo'limi katta inspektori, katta leytenant.

SAF KO'RIGI

Urganch shahar Yoshlik ko'chasida viloyatning barcha kommunal soha hamda hamkorlikdagi idora va tashkilotlarning kuch va vositalari, maxsus texnika hamda asbob-anjomlarining saf ko'rigi o'tkazildi.

Unda asosiy e'tibor kuzgish mavsumini betalafot

o'tkazish, mavsum davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong'in xavfsizligini ta'minlash, kommunal sohalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariyalarni tezda va samarali bartaraf etishga qaratildi.

Shuningdek, ko'rik davomida rahbarlar tomonidan barcha soha vakillariga mavsumni

betalafot o'tkazish, mavsum davomida har bir soha xodimlari o'z xizmat vazifasiga siddiqdildan vijdonan yondashishi, maxsus texnika va asbob-anjomlari doimiy shay holatda turishi yuzasidan topshiriqlar va ko'rsatmalar berildi.

Erkinboy ERNAZAROV,
Urganch shahar FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, leytenant.

KASB-HUNAR MAKTABIDA

Ulug'nor tumani FV bo'limi tomonidan tuman kasb-hunar maktabida yong'inlarning oldini olish, is gazidan zaharlanish, havo-gaz aralashmasining chaqnashi kabi hodisalarning

oldini olish bo'yicha profilaktik suhbat o'tkazildi.

M.TURSUNAHMADOV,
Ulug'nor tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, kapitan.

DAVRA SUHBATI

FVV Fuqaro muhofazasi institutida yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimi leytenant O.Rahmonov ishtirokida "Yo'l qoidasi umr foydasi" mavzusida davra suhbat o'tkazildi.



Mazkur tadbir davomida yo'l harakati xavfsizligiga oid mamlakatimizda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirildi. Institut jamoasi o'zlarini qiziqtirgan savollarga to'laqonli javoblar olishdi. Shuningdek, tadbir davomida ishtirokchilarga yo'llarda to'g'ri harakat qilish, yo'l belgilariga

to'liq amal qilish, uyali aloqa vositalardan foydalanmaslik, tezlikni oshirmaslik tavsiyalari berildi. Zero har bir haydovchi o'zi va atrofidagi yo'l harakati ishtirokchilari uchun javobgardir.

O.MADRIMOVA,
FVI xodimi.

HAFTALIK DOIRASIDA

FVV Fuqaro muhofazasi instituti katta o'qituvchisi X.Azimov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi binosining ishchi va xizmatchilari bilan "Favqulodda vaziyatlar tasnifi va zilzila vaqtida to'g'ri harakat", "Is gazidan saqlanish va yong'inning oldini olish, sodir bo'lganda birlamchi o't

o'chirish vositalaridan to'g'ri foydalanish" mavzularida nazariy va amaliy suhbat o'tkazildi.

Suhbat davomida ishtirokchilarga mazkur tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari, ularning oldini olish borasida respublikamizda amalga oshirilayotgan muhofaza tadbirlari, shuningdek, bunday favqulod-

da vaziyatlar xavfi tug'ilganda va sodir bo'lganda aholining to'g'ri harakat qilish qoidalarini to'g'rsida batafsil ma'lumotlar berildi.

D.ROHATALIYEV,
Toshkent shahar FVB O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi binosida YXTTEB boshlig'i, mayor.

KURSANTLAR BILAN UCHRASHUV

Toshkent viloyati FVB TBM TBX harbiy xizmatchilari tomonidan "Yong'in xavfsizligi oyiligi" munosabati bilan harbiylar orasida yong'in xavfsizligini ta'minlash va favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida gamizon kuch va vositalarini jalb qilgan holda Mudofaa vazirligi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti shaxsiy tarkibi va kursantlariga targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borildi.

"Olov tilsiz yov" mavzusida yong'in-qutqaruv texnikalari, asbob-anjomlari to'g'risida tushunchalar berish bilan birga, yong'inlarning oldini olish, is gazidan zaharlanish, havo-gaz aralashmasi chaqnashining ayanchli oqibatlarini, ulardan saqlanish bo'yicha yo'riqnomalar berildi.

Shuningdek, kursant va ofitserlar ishtirokida yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish, birlamchi yong'in

o'chirish vositalaridan to'g'ri foydalanish yuzasidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Uchrashuv yakunida bilim yurti rahbariyati tomonidan mashg'ulotda faol qatnashgan qutqaruvchilarga tashakkurnomalar berildi.

O.BEKNAZAROV,
Toshkent viloyati FVB TBM TBX smena boshlig'i, mayor.
X.MUXTAROV,
TBX katta ofitseri, kapitan.

QURILISHDA HAM QOIDA BOR

Ulug'nor tumanidagi Mingbu- loq jome masjidida faollar hamda quruvchilar ishtirokida profilaktik uchrashuv o'tkazildi. Unda birinchi navbatda inson hayoti, salomatligi muhimligi tushintirilib, qurilish jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qilinishi lozimligi aytilib o'tildi.

Ma'lumotlarga qaraganda baxtsiz hodisalarning 20 foiziga yaqini qurilishdagi xavfli

zonalarda bo'lar ekan. Balandlikda ishlaganda ishchilar xavfsizlik kamarlarini bog'lab, himoya kaskalarini doim kiyib yurishlari, hamma ishchilar ishga tushishdan oldin xavfsizlik yo'riqnomasidan o'tishi lozimligi aytili.

A.ORTIQOV,
Ulug'nor tumani FV bo'limi katta inspektori, mayor.

KAMCHILIKLAR BARTARAF ETILSIN

Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani FV bo'limi tomonidan aholi xonadonlarida maishiy propan gaz ballonlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga amal qilishlik, is gazidan zaharlanish holatlarining oldini olish bo'yicha keng qamrovli profilaktik tadbirlar, targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Mutaxassislar xonadonlarda yurishib, suyuqlashtirilgan gaz ballonlaridan foydalanishda

xavfsizlik qoidalariga amal qilish lozimligi to'g'risidagi muhim ma'lumot va tavsiyalarni berib kelmoqdalar.

Shu sababli, joriy yilda qish mavsumiga puxta tayyorgarlik ko'rish va isitish mavsumida turli ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish maqsadida zarur profilaktik tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Viloyat FVB-da bugunga qadar amalga oshirilgan ishlar va yechimini kutayotgan dolzarb masalalar

tanqidiy ko'rib chiqildi. Joriy yilda qish mavsumiga puxta tayyorgarlik ko'rish lozimligi va aniqlangan kamchiliklarni tezkor bartaraf etish choralarini ko'rish kerakligi ta'kidlandi.

Jasurbek KUCHKELDIEV,
Oltinsoy tumani FV bo'limi bo'linma katta inspektori, katta leytenant.

FM TADBIRLARI

Chinoz tumani FV bo'limi tomonidan tumandagi 2-kasb-hunar maktabida tadbir o'tkazildi.

Unda ishtirokchilarga favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi bo'yicha profilaktik tushuntirishlar berildi. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va zilzila yoki yong'in sodir bo'lganda binoni xavfsiz

tark etish hamda evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha amaliy o'quv mashg'uloti o'tkazilib, kasb-hunar maktabi Fuqaro muhofazasi tuzilmalari, o'qituvchi va o'quvchilarining bilim va ko'nikmalari yanada mustahkamlandi.

Iskandar QO'ZIBOYEV,
Toshkent viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor.

Tungi vaqtda Namangan shahar FV bo'limi hamda viloyat IIB xodimlari bilan birgalikda qish mavsumini betalafot o'tkazish maqsadida tunda insonlar qoladigon maskanlar xususan, talabalar turar joylarida tungi tekshiruvlar o'tkazildi.

TUNGI REYD

Jarayonda, shahar hududida joylashgan Namangan Muhandistlik-qurulish institutiga qarashli talabalar turar joydagi talabalar mas'ul o'qituvchilarga va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in, chaqnash, is gazidan zaharlanish va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan qo'shimcha yo'riqnomalar berilib, tekshiruv davomida aniqlangan kamchiliklarni o'z o'rnida bartaraf etish choralari ko'ridi.

N.RAHMONOV,

Namangan viloyati FVB bo'lim boshlig'i, kapitan.

B.OTABAYEV,

Namangan shahar FV bo'limi katta inspektori, kapitan.

KO'RGAZMA

ShKB OYXTTEBP va NB ispektorlari va 6-yong'in-qutqaruv qism boshlig'i o'rinbosari hamda harbiy xizmatchilari tomonidan Uchquduq tumanidan 70 km. uzoqlikda joylashgan "Mingbuloq" OFY 4-DMTT va 11-umumta'lim maktabida "Yong'in xavfsizligi oyligi" tadbiri davomida profilaktik suhbat hamda qutqaruv aslaha-anjomlari ko'rgazmali namoyishi tashkil qilindi.

Ushbu tadbirda OFY raisi, fuqarolar, o'qituvchi va o'quvchilar ishtirok etdilar. Is gazi, yong'in xavfsizligi qoidalari haqida tushuntirilib, eslatma materiallari tarqatildi.

O.HIKMATOV,

ShKB OYXTTEB 6-YQQism boshlig'i o'rinbosari, katta leytenant.

BEG'ARAZ YORDAM

Buxoro viloyati FVB harbiy xizmatchilari tomonidan "Yong'in xavfsizligi oyligi" tadbirlari ko'tarinki va samarali tarzda o'tkazilmoqda. Qish mavsumi davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish, tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa, Jondor tumani Madamboy qishlog'ida istiqomat qiluvchi kam ta'minlangan oila va nogironligi bo'lgan shaxslarning ahvolidan xabar olinib, yordam ko'rsatildi.

S.MURTAZOYEV,

Buxoro viloyati FVB RQUDM OBYXTTEB inspektori, kapitan.

TUSHUNTIRISH BERILDI

Toshkent viloyati FVB Chirchiq shahar Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi binosida Yoshlar ishlari boshqarmasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan volantiyor guruhlarining 110 nafar ishtirokida bilan o'quv seminar o'tkazildi. Unda volantiyorlarga o'quv dasturi bo'yicha belgilangan mavzular yuzasidan bilimlarini mustahkamlash bo'yicha tushunchalar berildi.

Shuningdek, o'quv mashg'uloti ko'rgazmali tarzda o'tkazilib, ularga boshqarma tasarrufidagi maxsus texnikalar va ularning vazifalari tushuntirilib, mutaxassis-qutqaruvchilar tomonidan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligi bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi.

Iskandar QO'ZIBOYEV,

Toshkent viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor.

QO'SHIMCHA DARS-MASHG'ULOTI

ShKB OYXTTEB 8-YQQ harbiy xizmatchilarning radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza sohasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida 3-gidrometallurgiya zavodi FVX FH bo'yicha muhandisi T.Salayev ishtirokida kasbiy tayyorgarlik darslari bo'lib o'tdi. Unda harbiy xizmatchilar o'zlarini qiziqtirgan hamda qiynab kelayotgan savollarga javob oldilar.

Shuningdek, ishtirokchilar mazkur zavodda qanday radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik moddalar mavjudligi, ularning kimyoviy xossalari to'g'risida tushunchalarga ega bo'ldilar.

Saidjon QODIROV,

ShKB OYXTTEB 8-YQQ boshlig'ining o'rinbosari, katta leytenant.

Husniddin YAXYAYEV,

bo'lim kichik inspektori, oddiy askar.

YONG'IN BO'LMASIN

Paxtakor tumani FV bo'limi tomonidan tuman prokuraturasi, gaz va elektr tarmoqlari korxonasi xodimlari hamkorligida "Oltin-ko'l" mahalla aholisi bilan targ'ibot tadbirlari olib borildi.

Tadbir jarayonida mahalladagi 8-umumta'lim maktabi va 5-maktabgacha ta'lim tashkilotlarining qish mavsumiga tayyorgarligi o'rganildi. O'rganishlar davomida ta'lim muassasalari ititish tizimlarining sozligi, ko'mir zaxiralari yaratilganligiga alohida e'tibor qaratildi. Ishchi-xizmatchilariga yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etish, yong'in vaqtida to'g'ri harakatlanish va yong'in-o'chirish anjomlaridan to'g'ri foydalanish tartiblari, qo'lbola elektr va gaz isitish pechlaridan foydalanmaslik, elektr uskunalari nazoratsiz qoldirmaslik, elektr tarmog'iga bir vaqtning o'zida ko'plab elektr uskunalari ulash tarmoqda ortiqcha yuklanishga va yong'inga sabab bo'lishi mumkinligi hamda is gazidan saqlanish, mavsumda energiya resurslaridan oqilona va tejamkor foydalanish bo'yicha keng qamrovli tushuntirish ishlari olib borildi.

Ulug'bek BOYBO'TAYEV

Paxtakor tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

"TEXNOPARK"DA PROFILAKTIKA

Yashnobod tumani FV bo'limi profilaktika inspektorlari tomonidan tumandagi TEXNOPARK hududida ishchi-xizmatchilar bilan turli hil favqulodda vaziyatlar kelib chiqishining oldini olish maqsadida profilaktik uchrashuvlar olib borildi. Qolaversa, tumandagi har bir tadbirkorlik subyektiga tashrif buyurilib, maskanning favqulodda va yong'in xavfsizligi holati ko'zdan kechirilib, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tadbirkorlarga tavsiya va yo'riqnomalar berib, hushyorlikka chaqirilmogda.

A.HAYITBOYEV,

Yashnobod tumani FV bo'limi katta inspektori, katta leytenant.

V.PIRMAMATOV,

bo'lim katta inspektori, katta leytenant.

SEMINAR

Yashnobod tumanidagi Bolalar milliy tibbiyot markazi rahbariyati ishtirokida ishchi-xodimlar, shifokorlar bilan seminar o'tkazildi. Seminar davomida xodimlarga respublikamizda bugungi kunda sodir bo'layotgan turli favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarini, eng achinarlisi ushbu favqulodda vaziyatlar ro'y berishi natijasida insonlarning halok bo'lishi, tan jarohati olishi va ko'rilayotgan moddiy zararlar haqida aytib o'tildi.

So'z yakunida barcha yanada hushyorlikka chaqirilib, tushuntirish ishlari olib borildi.

M.NAJMIYEV,

Yashnobod tumani FV bo'limi o'rinbosari, mayor.

A.HAYITBOYEV,

katta leytenant.

TAVSIYALAR BERILDI

"Yangi-Angren IES" AJ obyektlarida bo'linma xodimlari tomonidan korxonaning sex va bo'limlari yong'inga qarshi holati ko'zdan kechirilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar berildi.

Unda favqulodda vaziyat sodir bo'lganda qanday harakatlarni olib borish kerakligi, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va fuqarolarni is gazidan zaharlanishining oldini olish, shuningdek, yong'inga qarshi texnik himoya jihozlari, yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari hamda fuqarolar mol-mulkini evakuatsiya qilish choralari to'g'risida tushunchalar berildi.

Farruxjon YULDASHYEV,

"Yangi-Angren IES" AJ OYOXTEB kichik inspektori, 1-darajali serjant.

QURILISH OBYEKTLARIDA

Namangan viloyati FVB shaharsozlik profilaktika bo'limi xodimlari tomonidan 2024-yilning 11-oyi mobaynida qator ishlar amalga oshirildi.

Qurilish obyektlarida muntazam ravishda profilaktik tadbirlar olib borilib, ushbu tadbirlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish maqsadida, 420 ta qurilish maydonlarida 11913 nafar quruvchilar, gaz va elektr payvandchilari bilan suhbat va yo'riqnomalar berilib uchrashuvlar o'tkazildi.

Tadbirlar loyahasini ko'rish va qurilish obyektlarini qabul qilish jarayonida, obyektlarda shaharsozlik normalari va qoidalarida belgilangan va loyihaga kiritilmay qolgan 1103 ta yong'inga qarshi tadbirlar yuzasidan loyihalash va qurilish tashkilotlari mutaxassislariga asoslangan takliflar berilib, 756 ta aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etilishiga erishildi.

Obyektlarining qurilish-montaj ishlari jarayonida yong'inga qarshi tadbirlarni bajarilishi aloqa xatlarga asosan o'rganib chiqildi. O'z vaqtida bajarilishiga erishilmagan tadbirlar bo'yicha daxldor tashkilot va idoralar rahbarlariga 494 marotaba axborot xatlari kiritildi.

Rashidjon TURDIBOYEV,

Namangan viloyati FVB SHSPB bosh inspektori, leytenant.

"YASHIL MAKON"

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Qashqadaryo viloyati FVB tomonidan G'uzor tumani hududiga iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda suvsizlikka chidamli daraxt ko'chatlari ekildi. Shuningdek, ushbu hududga mas'ullar birlashtirilib, qo'shimcha agrotexnik tadbirlar ham olib borildi.

Qashqadaryo viloyati FVB axborot xizmati.

ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI – XALQPARVAR DAVLAT POYDEVORI

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalari amalga oshirilgan keng ko'lamli va izchil demokratik islohotlar natijasida Yangi O'zbekistonni barpo etishning mustahkam siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy-madaniy asoslari yaratildi.

Kundalik hayotimizda "inson huquq va erkinliklari", "qonun ustuvorligi", "ochiqlik va oshkorlik", "so'z erkinligi", "din va e'tiqod erkinligi", "jamoatchilik nazorati", "gender tenglik", "xususiy mulk daxlsizligi", "iqtisodiy faoliyat erkinligi" kabi fundamental demokratik tushunchalar va qadriyatlar real voqelikka aylandi. Jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi shiddat bilan o'zgarib bormoqda. "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimiz farovonligini yanada oshirish, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda kuchli faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi.

O'zbekistonda jamiyat, davlatning evolyutsion rivojlanishidan kelib chiqadigan bo'lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish ham hayotiy zarurat edi. Binobarin, ushbu hujjat davlatimiz va xalqimizning keyingi qadamlari, taraqqiyot istiqbollari belgilab berdi. Keyingi yillarda erishilgan muvaffaqiyatlar, xususan, inson huquqlari, odil sudlov, so'z va vijdon erkinligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi yutuqlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yildi. Bu esa ularning barchasidan nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarimiz ham erkin foydalanishi kafolatlandi, deganidir. Yangilangan Konstitutsiyaga ko'ra, hech kim sudning qarorisiz va qonunga nomuvofiq holda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarining o'rnini qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanadi.

Endi har kim O'zbekiston qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha mavjud ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, murojaat etishga haqli. Agar xalqaro shartnomada O'zbekiston qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekistonda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi mustahkamlandi. Mazkur qoida fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida himoyalanihini ta'minlaydi. Davlat organlari yoki mansabdorlar tomonidan shaxslarga nisbatan g'ayriqonuniy qaror yoki xatti-harakatlar sodir etilishining oldini oladi, shaxslarga yetkazilgan zarar o'z vaqtida va to'liq qoplab berilishini ko'zda tutadi.

Bosh qonunimizda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi mustahkamlandi. Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilandi. Bu

jinoiy ta'qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o'tkazish, sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish kabi boshqa noqonuniy usullar qo'llanilishining oldini olishga qaratilgan oliy huquqiy normadir.

Endi har bir shaxsning mamlakatimiz bo'ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini erkin tanlash, yurtimizdan tashqariga chiqish hamda O'zbekiston fuqarolarining o'z vataniga moneliksiz qaytish huquqlari Bosh qonunimiz darajasida mustahkamlandi. Ushbu qoidalar barchasi O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularning buzilishi holatlariga barvaqt barham berishga xizmat qiladi. Konstitutsiyaga advokatura institutiga bag'ishlangan va advokatlar faoliyati kafolatlarini mustahkamlovchi alohida bob kiritildi. Advokat va uning kasbiy faoliyati davlat himoyasida ekani, advokatning kasbga oid huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini qonun bilan qo'riqlanishi mustahkamlandi.

Yangilangan Konstitutsiya "shaxs — jamiyat — davlat" tamoyiliga amal qilgan holda demokratiya, qonun ustuvorligi, insonparvarlik, adolat, vatanparvarlik kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ayniqsa, qonuniylik, tenglik kabi konstitutsiyaviy prinsiplarni ta'minlab beradi. Bu esa har bir inson uchun O'zbekistonda munosib hayot kechirish, o'zining hayoti, sog'lig'i kabi bebaho ne'matlarini ishonchli himoya qilish, barkamol rivojlanish orqali jamiyatimizning muhim a'zosi sifatida shakllanish uchun mustahkam zamin yaratilganidan dalolat.

Darhaqiqat, adolat yuksak ma'naviy qadriyat bo'lib, baxt, ozodlik, tenglik, do'stlik, tinchlik tushunchalari kabi insonning azaliy ezgu intilishlarining timsolidir. Adolat haqidagi ilk tasavvurlar juda olis zamonlarga borib bog'lanadi. Qadimgi davr mutafakkirlari uni universal qonun sifatida talqin etgan. Masalan, Zardusht adolatni "arta" tushunchasi yordamida ifoda etar ekan, uni olamdagi ikki qutbdan biri deb hisoblaydi. Yunon faylasufi Aflotun adolat muammosini tizimli tarzida o'rganib chiqishga harakat qilgan. Uning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasida adolat hukmronlik va imtiyoz tushunchalariga yaqin kategoriya sifatida sharhlangan. Faylasufning fikricha, har bir tabaqa ichida tenglik bo'lmog'i, tabaqalar o'rtasida tenglik hukm surmog'i adolatdandir. Arastu bu g'oyalarni rivojlantirib, "tenglashtirish" va "taqsimlash adolati" degan tushunchalarni qo'llagan. Forobiy adolatni ijtimoiy iyerarxiya va tartibning mavjud bo'lishi uchun poydevor yaratuvchi huquqiy kategoriya deb ta'riflagan. XVIII asrga kelib adolat ijtimoiy tenglik bilan bog'liq holda kun tartibiga qo'yila boshlandi. Hozirgi zamon falsafiy adabiyotlarida adolat jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni ifoda etuvchi kategoriya sifatida ta'riflanmoqda.

Ijtimoiy adolat jamiyatda demokratiyaning mavjudligi, insonning ijtimoiy himoyalangani, barchaning qonun oldidagi tengligi, shuningdek, fuqarolarning ish bilan ta'minlangani, tibbiy xizmat, uy-joy, ta'lim, madaniy ne'matlarga daxldorligini anglatuvchi ijtimoiy tizimdir. Ijtimoiy adolat real qadriyat bo'lib, bugungi kunda u fuqarolik jamiyatining uzviy bir qismi hisoblanadi. Demokratiya

jamiyatda ko'pchilik uchun o'z qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish sharoitini yaratadi. Bu esa ijtimoiy adolat tamoyillari uchun katta imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, insonning ijtimoiy himoyalangani ham fuqarolik jamiyatining barqaror rivojini ta'minlaydigan adolat omilidir. Barchaning qonun oldidagi

tengligi ham fuqarolik jamiyati hayotida muhim omil sifatida amal qiladi.

Zamonaviy fuqarolik jamiyatida insonni inson qiladigan ijtimoiy adolat asosi — ta'lim, tibbiy xizmat, uy-joy, mehnat kabi ne'matlardan hamma uchun erkin foydalanish imkoniyatining mavjudligidir. Inson doimo jamiyat hayotida muhim o'ringa ega bo'lishga intilib yashaydi, bu — uning asosiy ehtiyojlaridan biri. Fuqaroning huquq va burchlarining mosligi ham fuqarolik jamiyatidagi adolatli munosabatlarni aniq izga soluvchi omildir. Bundan nafaqat jamiyat, balki shaxsning o'zi ham katta manfaat ko'radi. Ana shu moslik tufayliga inson boshqalardan hurmat va e'tirof kutishga haqli. Jinoyatga yarasha jazo tizimi bo'lmagan sharoitda har qanday jamiyat taraqqiyot borasida qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Agar jinoyatni jazosiz qoldirmaydigan tizim ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish kuchiga ega bo'lsa, mehnat va uning baholanishi o'rtasidagi moslik — iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi. Bugungi zamonaviy jamiyatni ana shunday moslik qoidasiz tasavvur etish mushkul. Bu moslik butun iqtisodiy tizimning poydevorini tashkil etadi.

Adolatning o'zi biror-bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar o'rtasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash xususiyatiga ega. Shu bois adolat hodisasida jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor. Adolatda ikki ma'naviy jihat — ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma'lum ma'noda axloq sohasidagi miqdor o'lchovchi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdirlashni o'lchab turadigan tarozidir. Adolat bor joyda ijtimoiy zulm, beboshlikka yo'l yo'q.

Sohibqiron Amir Temur bobomizning bir umr "Kuch — adolatdadir" degan hikmatga amal qilib yashagani xalqimizning bu borada yetarli bilim va tajriba, an'ana hamda qadriyatlarga ega ekanini ko'rsatadi. Bugungi kunda adolat barchaning qonun oldida tengligi va qonunning barchaga teng tegishliligi ekanini anglatadi. Ya'ni, "Adolat — qonun ustuvorligida" degan tamoyil asosida yurtimizda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy negizda rivojlantirish mamlakatimizda adolatli jamiyat barpo etishga qaratilgan barcha o'zgarish va islohotlarning ma'no-mazmunini tashkil etadi. Hazrat Alisher Navoiyning "Kimki haqiqatni yolg'ondan, to'g'ri noto'g'ridan ajrata bilsa, u o'z adli bilan G'arbu Sharqni yoritgan bo'ladi" degan satrlarida mazkur iboraning ma'naviy-ma'rifiy mohiyati mujassamlashgan.

Mamlakatimiz Yangi O'zbekiston poydevorini mustahkamlaydigan qonunlar va institutlar tizimini yanada



takomillashtirib, dunyoda munosib o'rin egallashga harakat qilmoqda. Bu jarayon yangi Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topdi. Unda nafaqat mamlakatning uch ming yillik tarixi va madaniyati, balki zamonaviy dunyo konstitutsionalizmi asoslari ham to'liq aks etdi. Yangi Konstitutsiyaga muvofiq va xalqaro me'yorlar asosida inson huquqlari hamda erkinliklari mutlaq ustuvorlikka ega bo'ldi. Fuqarolarning barcha zarur huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda ularni himoya qilish davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi. Shu o'rinda yana adolat va ehtiyoj haqidagi fikrni takrorlashga to'g'ri keladi. Odamlar yaxshi yashashni, o'z mehnatiga yarasha maosh olishni, haq-huquqlari himoyalanihini, qariganda munosib pensiya bilan ta'minlanishni istaydilar. Adolat odamlarda kelajakka bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shu bois Yangi Konstitutsiyada adolat jamiyat va davlat munosabatlarining markaziy g'oyasi sifatida belgilandi, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasi kafolatlandi, "davlat — jamiyat — shaxs" paradigmasi "inson — jamiyat — davlat" tamoyiliga o'zgardi. Ijtimoiy yo'naltirilgan yangilangan Konstitutsiyadan kelib chiqadigan maqsad va vazifalarni bajarish aholini qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirishni va byudjetdan katta mablag' ajratishni talab qiladi. Bu esa nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, balki iqtisodiy tub o'zgarishlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi — shunchaki huquqiy hujjat emas, balki xalqimizning azaliy qadriyatlari, orzu-umidlari va buyuk kelajakka ishonchining yorqin timsolidir. U inson huquqlari, milliy birlik va adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, jamiyat barqarorligi va farovonligining mustahkam asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Yangi O'zbekiston dunyo mamlakatlari bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash, global iqtisodiyotda faol ishtirok etish hamda barqaror rivojlanishga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Sog'liqni saqlash sohasida davlat tibbiy yordamni kafolatlagan holda, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, epidemiyalarga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirishga katta e'tibor qaratildi. Bu nafaqat tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, balki ularni barcha uchun birdek qo'llashni nazarda tutadi.

Sahifani **Anvar QOBILOV** tayyorladi.

ISLOHOTLARIMIZ POYDEVORI

Toshkent shahar FVB boshlig'i polkovnik M.Muhitdinov rahbarligida "Yangi O'zbekiston – konstitutsiyaviy islohotlar" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'uloti o'tkazildi. Boshqarma va uning quyi tuzilmalari harbiy xizmatchilari hamda xizmatchilari bilan "ZOOM" orqali tashkil etilgan mashg'ulotda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar doirasida inson-huquq va erkinliklarining himoya qilishda barcha vositalardan to'laqonli foydalanilayotgani qayd etildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizning Asosiy qonunida belgilangan eng muhim prinsiplar, ya'ni xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, shuningdek, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jamiyat va shaxs o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kabi konstitutsiyaviy normalarni hayotga yanada kengroq tatbiq etishga zamon talablaridan kelib chiqib yondashuv boshlandi.

Darhaqiqat, huquqiy normalar, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan umummajburiy xarakterdagi ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan rasmiy hujjat hisoblanadigan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladigan idoralar va mansabdor shaxslar oldiga bir qator mas'uliyatlar yuklaydi.

E'tirof etildiki, qonun ustuvorligini ta'minlash va adolatli jamiyat barpo etish bu bir kunlik ish emas. Qolaversa, eng taraqqiy etgan mamlakatlarda ham tom ma'nodagi qonun ustuvorligi ta'minlangani va adolatli jamiyat barpo etilganiga hozircha guvoh bo'lganimiz yo'q. Mamlakatimizda suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat barpo etishda Konstitutsiya va u asosida yaratilgan qonunlarimizning ustuvorligi jamiyat taraqqiyoti va ravnaqini belgilab beruvchi eng muhim omil hisoblanadi.

A.SULTONOV,

Toshkent shahar FVB boshlig'ining, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik.

DAVRA SUHBATI

"Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida Fuqaro muhofazasi instituti professor-o'qituvchilari tomonidan "Barkamol avlod" Respublika bolalar maktabida "Kuz, qish mavsumida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish tartibi" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi. Davra suhbatida "Barkamol avlod" Respublika bolalar maktabining madaniyat va san'at, texnika konstruktorlik va modellash, turizm va ekologiya, hunarmandchilik va qo'l mehnati" kabi qator yo'nalishlarning barcha pedagog va ishchi-xodimlari qatnashdilar.

Suhbat juda qizg'in tarzda o'tdi. "Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlarda aholining harakatlari", "Yong'in va is gazi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar" mavzusidagi ma'ruzalar katta bahs va munozaralarga sabab bo'ldi. Ishtirokchilar tomonidan berilgan barcha savollarga to'laqonli javob qaytarildi.

Dilfuza RAHIMJONOVA,
FMI katta o'qituvchisi.

MUHIM TADBIR

Farg'ona viloyati FVBda "Rahbar ma'naviyati va kasb etikasi" mavzusida tadbir tashkil etildi. Unda radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofazani tashkil etish bo'limi boshlig'i mayor Elyorjon Shodmonov ma'ruza qildi.

Shuningdek, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar hamda ularni targ'ib qiluvchi mahsulotlarni qonunga xilof ravishda tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki mamlakatimiz hududiga olib kirish, mumkin emasligi ta'kidlandi.

Qayd etilganidek, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarning qonunga xilof ravishda tashkil etilishi va o'tkazilishi fuqarolarga nafaqat ruhiy ta'sir o'tkazadi, balki moliyaviy qaramlikka duchor etib, oilaviy nizolarga ham sabab bo'ladi. Ushbu faoliyat naqd pullarning bankdan tashqari muomalasi ko'payishiga, soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlanishiga yo'l ochadi hamda mamlakatimizning iqtisodiy ravnaqiga putur yetkazadi.

Farg'ona viloyati FVB axborot xizmati.

BOSHQARMADA ANJUMAN

Xorazm viloyati FVBda "Ochiq eshiklar" kuni va matbuot anjumani tashkil etildi. Tadbirlarda "Aksilkorupsiya oyligi" doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shaxsiy tarkib tomonidan jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, korrupsiyaga etaklovchi omillarni barvaqt aniqlash va ularga barham berish, manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelish sabablari boyicha fikr almashildi.

Shuningdek, "Yong'in xavfsizligi oyligi"ning maqsadi va erishilayotgan natijalar tahlil qilindi. Anjumanda viloyatda sodir bo'layotgan yong'inlarning tahlili, davlat tashkilotlarida, tadbirkorlik subyektlarida yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish yuzasidan o'tkazilayotgan tekshiruvlar bo'yicha so'z yuritildi.

Mirzojon KURBANOV,

Xorazm viloyati FVB bo'lim bosh inspektori, kapitan.

TAKTIK MASHG'ULOT

Toshkent viloyati FVB boshlig'i A.Alimatov boshchiligidagi o'tkazilgan mashg'ulotda hamkor tashkilotlarning shaylik holati nazoratdan o'tkazilib, Qibray tumani hokimi o'rinbosarlari, FV bo'limi, tuman IIB, Milliy gvardiya, mahalla, tuman elektr hamda gaz ta'minoti bo'limi xodimlari va boshqa tegishli tashkilotlar xodimlari uchun yo'riqnoma berildi.

Mashg'ulot davomida maxsus texnika va jihozlari jalb qilinib, ko'rikdan o'tkazildi hamda ularga yuklatilgan vazifalar yuzasidan qo'shimcha tushuncha va topshiriqlar berildi.

J.BAXROMOV,

Qibray tumani FVB OYXTTEB boshlig'i, podpolkovnik.

J.ABDUQAYUMOV,

bo'lim OYXTTEB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

BAYRAMGA TAYYORGARLIK

"Navruz mall" savdo markazida "2025-Yangi yil" bayrami ommaviy sayillari va Prezident archasi tadbirlarini o'tkazish davrida favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda ularning oqibatlarini bartaraf etish hamda oldini olish maqsadida, obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalari va Andijon shahar FVDT mas'ul xizmatlari shaxsiy tarkibi ishtirokida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Mashqda Yangi yil archasi, savdo yarmarkasi hamda kuch va vositalarning tayyorgarlik xolati amalda nazoratdan o'tkazildi.

Xayotbek RAHIMOV,

Andijon viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i.

ORASTALIK POSBONLARIGA

Ish boshlaysiz erta tongda-zimistonda,
Ta'rif etsam, siz kabilar chin insonda,
Bitmoqdaman ash'orimni hayajonda,
Rahmat sizga, orastalik posbonlari!

Ozodalik barchangizga erur odat,
Ishlagaysiz chin yurakdan qilib mehnat,
Yumushingiz etmagaysiz aslo minnat,
Rahmat sizga, orastalik posbonlari!

Kaftlaringiz shundan qadoq, g'adir-budir,
Gar anglasak, jannatga yo'l asli shudir,
Qadni egib, aylagaysiz supur-sidir,
Rahmat sizga, orastalik posbonlari!

Bardosh berib, soyasi yo'q qaynoq yozga,
Parvo qilmay, muzlatguvchi qish-ayozga,
Tinmagaysiz, loyiqdarsiz xo'b e'zozga,
Rahmat sizga, orastalik posbonlari!

Quvvar ko'zlar, saranjomlik qanday soz-a,
Beg'uborsiz, qalb ham niyatlardak toza,
Boringizga shukur, deymiz bugun rostdan,
Rahmat sizga, orastalik posbonlari!

Sanjar ISMOILOV,
FMI xodimi.



Vaziyat

gazetasi

Muassis:
O'zbekiston
Respublikasi
Favqulodda
vaziyatlar
vazirligi

Bosh muharrir
Azamat SUYUNOV

Gazeta tahririyat
kompyuterxonasida
sahifalandi.

Gazeta har haftaning
payshanba kuni chiqadi.
Topshirish vaqti – 15.00
Topshirildi – 15.00

Navbatchi:
A.QOBILOV

Sahifalovchi:
B.SALOHIDDINOV

Tahririyatga yuborilgan
materiallar qaytarilmaydi
va izoh berilmaydi.
Mualliflar fikri
tahririyat nuqtai nazaridan
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar
manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida 2007 yil
3 yanvarda 0096-son raqam
bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2091-5292

Tahririyat manzili:
100084, Toshkent shahri,
Yunusobod tumani,
Sh.Rashidov ko'chasi, 17-A-uy.
Tel.: (71) 212-69-56
Telegram: (90) 016-87-67

Indeks:
yakka obunachilar va
tashkilotlar uchun - 382

Gazeta "Sharq NMAK"
bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent shahri,
Mirobod tumani
Buyuk Turon ko'chasi 41-uy
Buyurtma № G-1252
Bichimi: A3, hajmi: 2 b.t.
Adadi - 9300 nusxa